



# “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” elektron ilmiy jurnali

№ 3 (3), iyul-sentabr, 2021 yil

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

### **SHOAXMEDOVA Nozima Xayrullaevna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, «Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari» kafedrasasi dotsenti

*E-mail: [nshoaxmedova@gmail.com](mailto:nshoaxmedova@gmail.com)*

### **MANNANOVA Shoxida Gaybullaevna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, «Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari» kafedrasasi katta o'qituvchisi

*E-mail: [shahidik@mail.ru](mailto:shahidik@mail.ru)*



**Annotatsiya:** Maqolada raqamli iqtisodiyot tamoyillari, uning IT texnologiyalari sohasida mutaxassislar tayyorlashga ta'siri, "World Skills" uyushmasining o'rni o'rganilgan, zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, professional standartlar, davlat ta'lim standarti, professional ta'lim dasturi.

**Аннотация:** В статье исследуются принципы цифровой экономики, ее влияние на подготовку специалистов в области IT-технологий, роль движения «World Skills», организацию современного образовательного процесса.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, профессиональные стандарты, государственный образовательный стандарт, программа профессионального образования.

**Abstract:** The article examines the principles of the digital economy, its impact on the training of specialists in the field of IT technologies, the role of the "World Skills" movement, the organization of the modern educational process.

**Key words:** digital economy, professional standards, state educational standard, professional education program.

Axborot va telekommunikatsiya tizimlari inson hayotining muhim qismiga aylanayotgan bir sharoitda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yangi mahsulotlar, innovatsion texnika va texnologiyalar paydo bo'lishi imkoniyatini oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli kelajakda yangi texnologiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ish joylarining 40 foizdan ortig'ini avtomatlashtirishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Ulardan ba'zilarida Avtomatlashtirishdan olinadigan unumdorlik boshqa

sohalar uchun ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va ularda ish bilan bandlik oshishini ta'minlaydi.

Makroiqtisodiyotning turli sektorlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni tatbiq etish mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyotni kirib kelish ba'zi mutaxassisliklarni keskin kamayishiga va yangi mutaxassisliklarga talab ortishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim tizimining ko'rsatkichlaridan biri mehnat bozorida mutaxassislarga bo'lgan talabni oshirish, mutaxassislarni tayyorlash professional standartlar talablarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Hozirgi vaqtda ta'lim tashkilotlari mehnat bozorida eng ko'p talab qilinadigan, yangi va istiqbolli kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini joriy qilmoqdalar.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

WorldSkills International-nodavlat notijorat uyushmasi bo'lib, uning maqsadi butun dunyo bo'ylab professional ta'limni, uning maqomi va standartlarini yaxshilash va butun dunyo bo'ylab xalqaro musobaqalar orqali zamon talabidagi kasblarni ommalashtirishdir [1].

N.M. Zolataryovning fikricha "World Skills" xalqaro harakati asosiy vazifasi professional tizimni rivojlantirish uchun yangi turtki, ta'limni xalqaro standartlarga kirishda xalqaro jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ishchilarning ijobiy imidjini yara-tishdagi, kasblar va shunga muvofiq jiddiy malakali kadrlar yaratish yo'lida ishchi kuchini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash lozim [2].

M.Yu. Malkinning fikricha "WorldSkills xalqaro loyiha sifatida o'rta kasbiy ta'limni rivojlantirish uchun amaliyotga yo'naltirilgan innovatsion shart-sharoitlarni yaratishga mo'ljallangan bo'lib, mintaq va mamlakat iqtisodiyoti yuqori malakali kadrlar tomonidan iqtisodiy yutuqlarga erishishga undaydi" [3].

#### **Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar**

Raqamli iqtisodiyot xizmatlariga qidiruv va pochta xizmatlari, raqamli texnologiyalardan foydalanish, moliyaviy operatsiyalar va boshqa ko'plab texnologiyalar, on-line xaridlar, axborot tizimlaridan foydalanish, multimediali

kontent ishlab chiqarish, masofadan o'qitish va h.k. kiradi.

Foydalanuvchilar taqdim etilayotgan xizmatlardan samarali foydalanish uchun hech bo'lmaganda asosiy AKT ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlaridan biri - aholining umumiy kompyuter savodxonligi darajasini oshirish uchun kadrlarni shakllantirishdir. Boshqa tomondan, barcha tarmoq xizmatlarining to'liq ishlashi va aholining raqamli iqtisodiyotga ishonchini shakllantirish uchun IT-texnologiyalari sohasida tizim ma'muri, texnik qo'llab-quvvatlash mutaxassisi, tizim dasturchisi, kompyuter tizimlari va tarmoqlari, veb va multimediya ishlab chiqaruvchilari ilovalari va boshqa ko'plab sohalarida xavfsizlik va axborotni himoya qilish bo'yicha mutaxassislarni ko'paytirish lozim.

Davlat ta'lim standartini yangilanishi bugungi kunda o'quv jarayonini jaxon talabiga mos ta'lim tizimi va "World Skills" xalqaro notijorat harakatini jaxon standartlariga uyg'unlashtirib olib borishga qaratilmoqda [6]. Bunda "Kasbiy jamoalar va ishchilarni rivojlantirish agentligi (WorldSkills)" Ittifoqining faoliyatini oshirishga erishiladi. Uning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- faoliyati va professional malaka turlari xalqaro va professional standartlari, shuningdek, ilg'or texnologiyalarni talablari darajasida ishlab chiqilgan;

- umumiy vakolatlari nomenklaturasi va orientatsiyasi o'zgargan;

- ta'lim tarkibi va mazmunini shakllantirish nuqtai nazaridan ta'lim tashkilotlarining akademik erkinligini oshirishga yo'naltirilgan;

- tarmoq va tizim ma'muriyati mutaxassisligi bo'yicha kasbiy ta'lim dasturini ishlab chiqishda, asosan, tarmoq va tizim ma'muriyati vakolatlarining texnik tavsifining talablari e'tiborga olingan.

O'quv dasturi amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan professional modullarning mazmuni kengaytirilgan.

#### **Taklif va xulosalar**

Nostandart ish bilan bandlik yuqori ijtimoiy intellekt, kirishimlilik, kreativ fikrlovchi innovatorlik, tashabbuskorlik kabi soft skills (mosla-

shuvchan) ko'nikmalarini talab qiladi. Garchi ular ishga qabul qilishning asosiy talablari bo'lmasa-da, ular xodimlarni tanlashda bir qancha afzalliklarga egaligi aniq.

Texnologiyalarning rivojlanishi ta'limga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot ta'limni yanada ochiq va qulay qiladi, hozirda aksariyat oliy o'quv yurtlari masofaviy o'qitish dasturlarini amalga oshirmoqdalar. Bundan tashqari, sun'iy intellekt «moslashuvchan» o'rganishni amalga oshirishga va har bir shaxs uchun alohida o'qitish kursini ishlab chiqqishga imkon beradi.

Hozirgi kunda respublika Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ma'lumotiga ko'ra internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22,1 milliondan oshgan, shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 19 million kishini tashkil etmoqda.

Shunga qaramasdan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatiladi va axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda [7].

Prognozlarga ko'ra, IT-kadrlar bozori 2030 yilgacha kadrlarga bo'lgan talabning barqaror ko'rsatkichlarini saqlab qoladi. IT-texnologiyalarni rivojlantirish, ularning ilgari ular uchun odatiy bo'lmagan yo'nalishlarda qo'llanilishi, jarayonlarni avtomatlashtirish IT-mutaxassislarini mehnat bozorida eng talabchilardan biri sifatida saqlaydi.

Butun dunyoda avj olgan pandemiya sharoitida raqamli texnologiyalar iqtisodiy pasayish paytida ko'rilgan zararning yarmini qoplashga yordam berishini hisobga olib, raqamli iqtisodiyotning hamda u bilan bog'liq ish bilan bandlik sohasidagi asosiy tendensiyalar quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar faol sur'atlarda o'sib bormoqda va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli

texnologiyalarning rivojlanishi zaruratini tan olgan holda ish bilan bandlikni tarkibiy o'zgarishlarini tadqiq etish talab etiladi.

Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish yaqin o'n yil ichida mavjud bo'lgan barcha kasblarning 9 dan 50 foizigacha yo'q bo'lib ketish xavfini tug'diradi. Qolgan «an'anaviy» kasblarning mazmuni yangi texnologiyalarni birlashtirish orqali sezilarli darajada o'zgaradi. Shu jihatdan, tegishli vazirliklar tomonidan kasb-lavozimlar klassifikatoriga o'zgartirishlar kiritib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Raqamli savodxonlikka bo'lgan talabning o'sishi sharoitida interaktiv, innovatsion o'qitish uslublariga talab ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotda ishlaydiganlar murakkab ma'lumotlarni yaratishi va qayta ishlashi, tizimli va tanqidiy fikrlashi, qarorlarni ko'p mezon asosida qabul qilish, ko'p tarmoqli xarakterdagi doimiy jarayonlarning mohiyatini tushunishi, yangi ma'lumotlarga moslashuvchan va egiluvchan bo'lishi, raqamli iqtisodiyotning haqiqiy muammolarini aniqlash va hal qila olishi kerak.

Ish bilan bandlikning xususiyati raqamli iqtisodiyot o'zgarishlari va zamonaviy tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishning texnikaviy- texnologik asoslari bilan bog'liq. Shu bois hozirgi davrda ish bilan bandlik ko'p jihatdan nostandart shaklni olayotganligi va tez o'zgarib borayotgan texnikaviy-texnologik va axborot yangiliklariga moslashtirishni talab etayotganligini e'tiborga olgan xolda mehnat bozorini rivojlantirish kontseptsiyasini qayta ko'rib chiqish lozim.

Ish bilan bandlikning tarkibi o'zgarmogda, iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlarida ish joylari kamayib borayotgan sharoitda faoliyatning innovatsion sohalari: fan, madaniyat, ta'lim, boshqaruv va boshqalarda yangi ish joylari yaratilmoqda. Shunday ekan, aynan ishchi kuchiga talab yuqori bo'ladigan sohalarda ijtimoiy investitsiyalar ko'lamini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горбачев А.А. WORLD SKILLS как инструмент реализации государственной политики в сфере подготовки рабочих кадров. Вестник экспертного совета, №4 (15), 2018.
2. Золотарева Н.М. Присоединение России к World Skills International // Профессиональное образование в России и за рубежом. № 2 (10). - С. 19–23.
3. Малкин М.Ю. WorldSkillsRussia – быть или не быть? // Инновационное развитие профессионального образования. № 1 (05). - С. 154–155
4. Фаттахова Р.З., Ефимова И.В. Движение World Skills как фактор повышения качества непрерывного профессионального образования // В сборнике: Непрерывное профессиональное образование как фактор устойчивого развития инновационной экономики Материалы 11-й Международной научно-практической конференции. В 2-х книгах. Под общей ред. Е.А. Корчагина, Р.С. Сафина. 2017. - С. 379–384.
5. Янушевская О.В. Формирование познавательного интереса у обучающихся через участие в конкурсах профессионального мастерства WorldSkills // Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. 2017. № 2 (9). - С. 33.
6. World Skills. Internet-portal [Elektron manba].
7. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: FAN, 2019. - 592 b.

